
Yangilanayotgan konstitutsiya – yurtimiz va xalqimizning farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos bo‘ladi

So‘nggi yillardagi yurtimizda olib borilayotgan tub islohatlar natijasi o‘laroq inson qadri, uning buguni va ertasi, hayoti, xalqimizning hayoti va yashash tarzini, turmush darajasini oshirishga qaratilmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Buning isboti o‘laroq so‘nggi 3 yil ichidagi yil nomlarida “INSON” bosh g‘oya ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Inson bosh g‘oya bo‘lar ekan uning – xalqning fikri, qarashlari, buguni va ertasi uchun bo‘lgan munosabati, uning davlatni boshqarishdagi fikri albatta muhim o‘rin tutadi.

Har bir davlat o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lini tanlar ekan, xalq farovonligini ta‘minlashga xizmat qiladigan eng muhim maqsad va vazifalarini o‘zining Konstitutsiyasi – asosiy qonunida mustahkamlab oladi.

Davlatning demokratikligi saylovlar va referendumlar orqali ro‘yobga chiqadi desak xato qilmagan bo‘lamiz, albatta. Buning isboti o‘laroq hozirgi kunda mamlakatimiz juda muhim bir siyosiy voqea davrida turganini bilamiz, bu ham bo‘lsa yangilanayotgan konstitutsiyamizning xalq muhokamasi, referendumga qo‘yilishidir. Dastlab biz ko‘p takidlayotgan referendum o‘zi qanday jarayon va uning yurtimizdagi tarixiga to‘xtalsak.

REFERENDUM (lot. referendum — bildirilishi kerak bo‘lgan) — umumxalq [ovoz](#) berish yo‘li bilan qonunlar qabul qilish va [davlat](#) ahamiyatiga molik eng muhim masalalarni [hal](#) qilish shakli hisoblanib, bevosita demokratiyaning muhim vositasidir. Referendumning saylovlardan asosiy farqi shundaki, referendum o‘tkazilayotganda biron bir lavozimga nomzod yoki nomzodlar ro‘yxati uchun ovoz berilmaydi, balki unda muayyan [masala](#) — qonun, [qonun](#) loyihasi, konstitutsiya, konstitutsiyaga tuzatishlar, mamlakatning xalqaro maqomiga taalluqli yoki ichki siyosatiga oid biron bir savol qo‘yilishi mumkin.

«[O‘zbekiston](#) Respublikasining referendumi to‘g‘rsida»gi qonunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining Referendumi O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini va boshqa qarorlarini qabul qilish maqsadlarda [jamiyat](#) va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir. Referendumda qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega bo‘ladi va faqat referendum yo‘li bilan bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin. Referendum O‘zbekiston Respublikasining butun hududida o‘tkaziladi.

Referendum yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasi tarixida 1-marta 1991-yil 29-dekabrda referendum o‘tkazilgan. Bu referendumda «O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 31-avgustdagi Konstitutsiyaviy qonuni to‘g‘ri qabul qilinganligini O‘zbekiston xalqi bir ovozdan ma‘qullagan.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, hozirda mamlakatimizda yangilanayotgan konstitutsiya bo‘yicha referendum o‘tkazish uchun juda ham muhim tayyorgarlik ishlari amalga oshirilmoqda. Referendumda kimlar ishtirok etishi, qay tartibda o‘tkazilishi ham, albatta, muhim masalalardan biridir.

Referendum o‘tkaziladigan kunga qadar yoki referendum kunida o‘n sakkiz yoshga to‘lgan O‘zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi referendumda ishtirok etish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida istiqomat qilayotgan yoki turgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi referendumda ishtirok etishga to‘la ¹/₂ haqli. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etganligi uchun sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslar referendumda ishtirok etish

huquqiga ega emaslar. Kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqei, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabati, mashg'ulotining turi va xususiyatiga qarab fuqarolarning referendumda qatnashish huquqlarini bevosita yoki bilvosita cheklash man etilgan.

Referendumda ovoz berish tartibiga to'xtaladigan bo'lsak, ovoz berish referendum kuni soat 8.00 dan 20.00 gacha o'tkazilib, ovoz berish vaqti va joyi to'g'risida uchastka komissiyasi referendum o'tkaziladigan kunga kamida o'n kun qolganda fuqarolarni xabardor qiladi. Referendumda ovoz berish byulleteni ovoz beruvchi tomonidan yashirin ovoz berish kabinasi yoki xonasida to'ldiriladi. Ovoz berish byulletenini to'ldirish vaqtida ovoz beruvchidan boshqa shaxslarning hozir bo'lishi taqiqlanadi. Byulletenni mustaqil ravishda to'ldirish imkoniga ega bo'lmagan fuqaro o'z xohishiga ko'ra, referendum o'tkazuvchi komissiya tarkibiga kiradigan shaxslardan, kuzatuvchilardan boshqa biron kishini kabina yoki xonaga taklif qilishga haqli.

Ushbu referendumlarda mamlakatimizda demokratiya yanada rivojlanib va ayni damda mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi. Yurtimizning har bir fuqarosiga xalqimiz taqdiri va ertangi kunini belgilab beradigan tarixiy hujjat loyihasiga befarq bo'lmay o'z hissasini qo'shayotganligi uchun chuqur minnatdorchilik bildirib qolamiz.

Javohir Rustamov

Fuqarolik ishlari bo'yicha O'zbekiston tumanlararo sudining devonxona mudiri

2023-04-26 09:46:37